2013-2022-YILLARDA “SAMARQAND” DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASIGA TASHRIF BUYURUVCHILAR OQIMI TAHLILI

ANALYSIS OF THE INFLUX OF VISITORS TO THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE IN 2013-2022

АНАЛИЗ ПРИТОКА ПОСЕТИТЕЛЕЙ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА В 2013-2022 ГГ.

Jamshid Avazovich Djurakulov
“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi Turizm va marketing bo‘limi boshlig‘i
jamshidavazovich@gmail.com
+998 93 352-80-07

Annotatsiya: Ushbu maqola “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasiga 2013-2022 yillarda tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy sayyohlarning so‘nggi 10 yillik davr ichidagi tahlili haqida bo‘lib, unda muzey-qo‘riqxonaning har yillik hisobotlaridan foydalaniladi. Shuningdek, tahlil davomida muzeylar sohasida qabul qilingan hukumat qarorlari hamda muzeylarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan mulohazalar yuritiladi.

Abstract: This article is about the analysis of foreign and domestic tourists who visited the "Samarkand" state museum-reserve in 2013-2022 within the last 10-year period, which uses the annual reports of the museum-reserve. Also, during the analysis, government decisions in the field of museums, as well as considerations that would be appropriate to implement in museums.

Аннотация: Эта статья посвящена анализу иностранных и местных туристов, посетивших Государственный музей-заповедник "Самарканд" в 2013-2022 годах за последние 10 лет, с использованием ежегодных отчетов музея-заповедника. В ходе анализа также будут рассмотрены правительственные решения, принятые в области музеев, а также соображения, которые было бы целесообразно реализовать в музеях.

Kalit so‘zlar: muzey, marketing, samarqand, tarixiy obidalar, tahlil, turizm, turist, tashrif buyuruvchilar, 2013, 2014, 2015, 2016, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022, koronavirus, pandemiya, servis.

Keywords: museum, marketing, Samarkand, historical monuments, analysis, tourism, tourist, visitors, 2013, 2014, 2015, 2016, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022, coronavirus, pandemic, service.

Ключевые слова: музей, маркетинг, Самарканд, исторические памятники, аналитика, туризм, турист, посетители, 2013, 2014, 2015, 2016, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022, коронавирус, пандемия, сервис.

“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi O‘zbekiston hukumatining 26-may 1982-yildagi №397-sonli qaroriga binoan A.Ikromov nomli O‘zbekiston davlat madaniyat va san’at tarixi muzeyi bazasida “Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me’moriy va badiiy muzey qo‘riqxonasi” nomi bilan tashkil etilgan bo‘lib, hukumat qarori bilan 2018-yildan “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi nomiga o‘zgartirilgan. Tashkil etilgan vaqtda umumiy muhofaza etiladigan hududlar jami 798 gektarni tashkil etib, shundan Afrosiyob qalasi va shaharchasi 218 gektar, o‘rta asr Samarqand shahri (eski shahar) 320 gektar va “Yangi shahar” 260 gektarni qamrab olgan.

Hozirgi vaqtda muzey-qo‘riqxona tarkibida muzeylar:

1) O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi,

2) Buyuk Ipak yo‘li ko‘rgazmalar zali (O‘zbekiston madaniyat tarixi davlat muzeyi filiali),

3) Xalqlar do‘stligi va diniy bag‘rikenglik ko‘rgazmalar zali (O‘zbekiston madaniyat tarixi davlat muzeyi filiali),

4) Viloyat o‘lkashunoslik muzeyi,

5) Samarqand shahar tarixi Afrosiyob muzeyi; 6)Mirzo Ulug‘bek muzey-majmuasi,

7) Sadriddin Ayniy uy-muzeyi,

8) Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi,

9) Hoja Abdulaziz Abdurasulov uy-muzeyi,

10) Paxtachi tuman tarixi muzeyi,

11) Kattaqo‘rg‘on shahar tarixiy o‘lkashunoslik muzeyi,

12) Ishtixon tuman tarixi muzeyi,

13) Qo‘shrabot tumanidagi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li uy-muzeyi,

hamda quyidagi tarixiy obidalar:

1) Amir Temur maqbarasi,

2) Bibixonim majmuasi,

3.) Nodir Devonbegi madrasasi faoliyat yuritmoqda.


Bosh muzey “O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi” hisoblanadi. “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonada 235 000 donadan ortiq ashyo saqlanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir shaxs o‘zini intilektual qobiliyati darajasini yuqoriga ko‘tarish va mukammallashtirish, ilmiy salohiyatini yanada oshirish va dunyo xalqlari madaniyati, tarixi, buguni bilan tanishishda muzeylar o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Qaysi faoliyat turi bo‘lmasin, uni dastlab tarixiga, bugungi

holati va kelajakda erishishi mumkin bo‘lgan istiqbollariga, insonlar ehtiyojini qanoatlantirish darajasiga nazar tashlanadi. Xo‘sh, so‘nggi 10 yilda muzeylarimizga qancha mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi, muzeylar ularning ehtiyojlarini qanchalik darajada qanoatlantirayapti?

Muzey-qo‘riqxona tizimidagi muzeylar va tarixiy obidalarga tashrif buyuruvchilarni tahlil qilish muzeyning keyingi faoliyatida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlarni hamda joriy faoliyatining haqqoniy holatini aniqlab berishga xizmat qiladi.

2013-2022-yillar davomida muzey-qo‘riqxonaga jami 10 mln.ga yaqin tashriflar amalga oshirilgan. Tashriflarning yillik statistikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2013-yil 821 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib so‘nggi 4 yilda uzluksiz o‘sish kuzatilib yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘ldi, ya’ni, 1 mln 700 ming tashriflarni tashkil qildi. Bunda albatta, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi “Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini



ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 189-sonli qarorini e’lon qilinishi muzeylarga ayniqsa mahalliy xalqimizning qiziqishi yanada ortishiga sabab bo‘ldi. Unga ko‘ra idoraviy bo‘ysunishidan qat’i nazar, barcha davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta’minlash maqsadida haftaning har seshanba va juma kunlari bolalarning respublika davlat muzeylariga bepul kirishi kunlari etib belgilandi. Bu qaror, muzeylarimizga eng ko‘p keladigan tashrifchilar 18 yoshgacha bo‘lganlar sonining 2019-yilgacha izchil suratlarda o‘sishiga dastak bo‘lib xizmat qildi.

1-gistogramma.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli farmoni bilan O‘zbekistonda turizm iqtisodiyotning strategik sektoriga aylantirilishi, turizm uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy

turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ‘ibot qilish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Farmonda turizm sohasida davlat siyosatining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini belgilab beradigan ushbu tarmoqni tubdan isloh qilish bo‘yicha asosiy maqsadli vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi. Shuningdek, turizm sohasida litsenziya berish, sertifikatlashtirish hamda boshqa ruxsatnomalar berish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan, davlat tomonidan boshqariladigan bir qator prinsipial yangi mexanizmlar belgilab qo‘yildi.

2017-yil 1-apreldan boshlab turizm maqsadida O‘zbekiston Respublikasiga 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga keluvchi 27 davlat sayyohlari uchun viza tartibi bekor qilindi. Shuningdek, davlat rahbari tomonidan 2017-yil 1-yanvardan boshlab barcha mamlakatlar uchun 30 kun muddatga beriladigan yagona sayyohlik vizasini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlanishi bo‘yicha ma’sullarga topshiriq berildi hamda 2018-yildan boshlab elektron viza tizimini tatbiq etish ham belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi “2017 — 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son qarori ijrosi doirasida davlat muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari, yangi tashkil etiladigan, davlat muzeylari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash, davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat muzeylari, ularning filial va bo‘limlari ro‘yxati shakllantirilishi keng ko‘lamli muzeyshunoslik sohasining yangi bir bosqichga olib chiqilishiga shahdam qadamga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3514-son qarori doirasida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar belgilanganligi respublikamiz fuqarolarini vatanimizdagi muqaddas qadamjolar va muzeylar bilan yaqindan tanishish, dam olish kunlarini mazmunli o‘tkazish shu bilan bir qatorda muzeylarimiz ko‘rgazma zallaridagi nodir muzey ashyolari bilan yanada qulay shaklda yaqindan tanishishga imkon yaratdi.

Mana shunday turizm va muzeyshunoslik sohasiga oid hukumat darajasidagi islohotlarning natijasida “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasiga 2017-yil – 1 mln 140 ming 074 marta tashriflar amalga oshirilgan bo‘lsa, 2018-yil – 1mln 948 ming 594 marta, 2019-yil esa – 1 mln 957 ming 200 martani tashkil etib, ko‘rsatilgan ushbu 3

yilda o‘sish o‘rtacha 70 % gacha oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, xorijlk sayyohlarning soni 327 mingda kishidan oshganligi, so‘nggi 6 yillikdagi eng baland statistika ko‘rsatgichini qayd etdi.

Muzeylarni rivojlantirishning innovatsion va amaliy mexanizmini ishlab chiqish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash, san’at va badiiy ijodni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jahon madaniyati maydonida mamlakatning nufuzini mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrda “2020-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 1019-son qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, yetakchi xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda muzeylar kolleksiyalari va muzeylar infratuzilmasini tahlil qilish, muzeylar infratuzilmasi sifati darajasini oshirish, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning muzeylarga kirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda muzeylarni rivojlantirish bo‘yicha yillik marketing rejasini tasdiqlash, tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini muntazam tahlil qilish jarayonlarini joriy etish, xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb etgan holda smart-texnologiyalarni joriy etish asosida ekspozitsiyalarni ishlab chiqish belgilandi.

Jahon hamjamiyatida O‘zbekistonning ijobiy imidjini shakllantirish va mustahkamlash, mamlakatimizning muzey to‘plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-mayda “O‘zbekiston Respublikasida muzey va teatrlarning marketing faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 325-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, muzeylarga tutash hududda interfaol zonalarni yaratish, zamon talablariga javob beradigan muzeylar infratuzilmasini rivojlantirish va qiyofasini o‘zgartirish maqsadida dunyoning yetakchi muzeylaridan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, muzey ichida hunarmandlar ustaxonasini va savdo shoxobchalarini tashkil etish hamda ularda muzey ashyolari va kolleksiyalari nusxalari, milliy suvenir mahsulotlari savdosini yo‘lga qo‘yish, muzeyda axborot va virtual haqiqat texnologiyalardan foydalangan holda sensorli ekranlarda interfaol ko‘rgazmalar o‘tkazish, muzeylarning joylashgan joy manzili, unga yetib borish usuli va masofasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aeroport, temir yo‘l va avto vokzallar, jamoat joylari va joylashtirish vositalari, shuningdek, reklama obyekti va kioskalarda tarqatish, muzeylarni global interaktiv kartalar (“GoogleMaps”, “YandexKarta”, “MapsMe” va boshqa elektron navigator va kartalar)ga joylab borish, muzeylar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida jamoatchilikning muzey xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini har yillik sotsiologik o‘rganishlar orqali marketing tadqiqotlari olib borish va jamoatchilik bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatish kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

COVID-19 koronavirus infeksiyasi kasalligi ilk marotaba 2019-yilning dekabrida Xitoyning Uxan shahrida qayd etilgandan so‘ng kasallik 2020-yilning 11-martida

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb belgilandi. Pandemiyaning salbiy ta‘siri O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi ma'lumotiga asosan COVID-19 O‘zbekistonda ilk bor 2020-yilda 15-mart kuni aniqlandi. Ushbu holatlar e’lon qilingach, xalqaro o‘zaro qatnovlar to‘xtatildi, kasallikni keng yoyilishini oldini olish hamda aholi salomatligini himoya qilish maqsadida respublikamizda bosqichma-bosqich karantin cheklovlari tadbiq etildi. Xorijlik sayyohlar oqimining kamayishi natijasida turizm industriyasida kelib chiqqan iqtisodiy taqchillikni yumshatish, turizm industriyasini qo‘llab-quvvatlash maqsadida asosiy e’tibor mahalliy turizmni rivojlantirishga qaratildi.


Karantin davrida O‘zbekistonda turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatash maqsadida pandemiya davrida ularga bir qator imtiyozlar, soliq ta‘tillari va subsidiyalar berish tartibi joriy etildi. Turizm sohasini jadal sur’atlarda tiklash va mamlakatdagi sanitariya-epidemiologik vaziyat barqarorlashgandan so‘ng uni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyunda “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4755-sonli Qarori e’lon qilindi. Respublikada O‘zbekiston uchun xavfsiz turizm bo‘yicha maxsus dastur “Uzbekistan: Safe travel GUARANTEED” (“O‘zbekiston: Xavfsiz sayohat kafolatlangan”) xalqaro standartlarga muvofiq sanitariya me’yorlariga rioya etilishini ta‘minlashga xizmat qildi. Bu dasturning asosiy maqsadi xorijiy sayyohlarni jalb etishda O‘zbekiston hududi bo‘ylab xavfsiz sayyohat qilish mumkinligini targ‘ib etish, shuningdek, pandemiya yangi innovatsiyalar uchun imkoniyatlarni onlayn(vertual)-sayohatni rivojlatirishga turtki bo‘ldi. Bu esa kelajakda potensial sayyohlarning mamlakatimizga sayohat qilishga undaydigan omillardan biri hisoblanadi.

Covid-19 pandemiyasi 2020-2021-yillar tashqi va ichki turizmga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi, 2020-yilda “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasiga – 167 ming 496 kishi tashrif buyurib, 2019-yilga nisbatan 1 mln 789 ming 704 kishi kam (-91,5 %) tashriflar amalga oshirildi ya’ni o‘tgan yilning 8,5 foizini tashkil qildi**.**

Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini turizm hamda unga bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash orqali kamaytirish, mamlakatda sanitariya-epidemiologik vaziyat yaxshilanishiga qarab turizm sohasini jadal qayta tiklash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyulda “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 433-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra turoperator va turagentlik xizmatlarini ko‘rsatish tartibi, xorijiy mamlakatlardan O‘zbekistonga charter reyslarining tashkil qilish xarajatlarini kompensatsiya qilish, turizm industriyasi tadbirkorlik subyektlariga grantlar berish, kompensatsiya va moliyaviy

yordam ko‘rsatish, turizm axborot markazlarini barpo etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish, koronavirus pandemiyasi va global inqirozli holatlarning mamlakat turizm sohasiga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha turizm sohasini qayta jonlantirish uchun dolzarb vazifalar belgilab olindi.

Sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2021-yil “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi tizimidagi muzeylar va tarixiy obidalarga – 683 ming 921 marta tashriflar amalga oshirilib, oldingi yilga nisbatan 4 karra ko‘p yoki 516 ming 425 marta ko‘p tashriflar amalga oshirildi.



2-gistogramma.

Mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash, shuningdek, muzeylarda o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to‘plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-mayda “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-261-son Qarori qabul qilindi. Unga asosan, 2022-2023-yillarda davlat muzeylarida tashkil etiladigan qo‘shimcha xizmatlar, O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid 2022-2024-yillarda yangi tashkil etiladigan ekspozitsiyalar, noyob muzey ashyolari va kolleksiyalarining replikatsiyalarini tayyorlash hamda ularni realizatsiya qilish, muzeylar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish, 2022-2023-yillarda muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari, aholidagi madaniy boyliklarni davlat muzeylari tomonidan qabul qilib olishni rag‘batlantirish va ommalashtirishga qaratilgan “Milliy merosga mening hissam!” umumxalq aksiyasi, ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillari, nogironligi bo‘lgan shaxslar,

keksalar va boshqa fuqarolarning muzeylar va tarixiy manzilgohlariga imtiyozli va bepul tashriflarini nazarda tutuvchi “Moziyga sayohat” dasturi, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va xodimlarni xorij muzeylarida malaka oshirishi kabi muhim chora-tadbirlarning amalga oshirilishi belgilab olindi.

Shu kabi muzeylar sohasidagi islohotlar samarasi o‘laroq, 2022-yilda “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi tizimidagi muzeylar va tarixiy obidalarga jami 827 ming 152 marta tashriflar amalga oshirilgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan 143 ming 231 marotaba ko‘p tashriflarni tashkil etib, so‘nggi 3 yilda tashriflar oqimining uzluksiz o‘sish suratini namoyon qildi.

Hukumat darajasida muzeylarga e’tibor berilishi albatta, ushbu sohaning rivojiga xizmat qiladi, ayniqsa, belgilangan chora-tadbirlarning tub mohiyatini anglagan holda izchillik bilan muzeylarga joriy etib borilsa. Muzeylarni rivojlantirishda har bir hududni turizm salohiyati, muzeyning salohiyati va infratuzilmasidan kelib chiqilib yondashish maqsadga muvofiq. Toshkent kontenentidagi muzey Sirdaryoga yoki Samarqand, Buxoro kabi turistlar oqimi yuqori bo‘lgan hudud Toshkent kontinentidagi muzeyni infrastrukturasi va xizmat ko‘rsatish turlarini aynan bir xil tarzda qo‘llab bo‘lmaydi, qo‘shimcha servis va xizmat ko‘rsatishni tashkil qilishda sarflanadigan xarajatlar (xizmat ko‘rsatuvchi qo‘shimcha shtatlar uchun ish haqi, qurish-o‘rnatish xarajatlari va boshqalar) o‘zini oqlamaslik riski vujudga kelishi mumkin. Muzeylarda servisni rivojlantirish orqali tashrif buyuruvchilarga mukammal madaniy-ma’naviy hordiq chiqarishni taklif qilish bilan bir qatorda, muzeyga joriy qilinayotgan servisdan qo‘shimcha daromad topishni moliyaviy-iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish talab qilinadi.

Shuningdek, muzeyning ijobiy imidjini shakllantirish, unga tashrif buyuruvchilar oqimini yanada ko‘paytirish yo‘lida uning joriy faoliyatini kompleks tahlil qilish, uning kelgusi rejalarini muzey ixlosmandlarining xohish-istaklari bilan uyg‘unlashgan holda zamonga ham nafas tarzda olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 07.02.2018 yildagi PQ-3514-son.

2. “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.06.2020 yildagi PQ-4755-son.

3. “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.04.2018 yildagi 261-son.

4. “O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.12.2016 yildagi PF-4861-son.

5. “Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.07.2014 yildagi 189-son.

6. “2017 — 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.12.2017 yildagi 975-son.

7. “2020-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.12.2019 yildagi 1019-son.

8. “O‘zbekiston Respublikasida muzey va teatrlarning marketing faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.05.2020 yildagi 325-son.

9. “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.07.2020 yildagi 433-son

10. “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasining 2013, 2014, 2015, 2016, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022-yillardagi yillik hisobotlari.

11. “O‘zbekistonda koronavirus bilan bog‘liq ilk holat aniqlandi”. 15.03.2020-yil. Havola: https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-koronavirus-bilan-bogliq-ilk-holat-aniqlandi [internet resurs]